

## **Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtiriladi**

2022-yilda hunarmandchilik loyihalarini moliyalashtirishga 500 mlrd so‘m yo‘naltiriladi. Shundan kelib chiqib, hunarmandlarga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 6 oygacha imtiyozli davr bilan 225 mln so‘mgacha kredit beriladi.

Bu mamlakatimiz Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda qabul qilingan “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-77-son qarorida belgilandi.

<https://lex.uz/pdfs/5807559>

Hujjatga muvofiq:

2022-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan mablag‘larning 500 mlrd so‘mi hunarmandchilik loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi;

imtiyozli kreditlar hunarmandchilik loyihalarini amalga oshirish uchun 6 oygacha imtiyozli davr bilan 225 mln so‘mgacha oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan shartlarda ajratiladi;

imtiyozli kreditlar hunarmandning talabi bo‘yicha naqd pul olish imkoniyati bilan takdim etiladi.

Imtiyozli kredit ajratish bo‘yicha “oilakredit.uz” elektron platformasida hunarmandlarni onlayn navbatga qo‘yish va ularning loyihalarini kreditlash uchun alohida bo‘lim ishga tushiriladi.

2022-yildan boshlab quyidagilarga subsidiyalar ajratiladi:

“usta-shogird” an‘analari asosida yoshlarga hunar o‘rgatayotgan hunarmandlarga – shogirdlar tayyorlashi, zarur xomashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta‘minlashi uchun 6 oy davomida har oyda BXMning 2 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

shogirdlarga — mustaqil faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishi, shuningdek, ustalarga — internet saytlarini tashkil etish, o‘z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama xarajatlarining 50 foizi, biroq BHMning 25 baravari miqdoridan oshmaydigan qismiga.

Bunda, subsidiya ajratiladigan hunarmandlar va shogirdlar hisobi “Hunarmand” uyushmasi tomonidan yuritilib, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining “Onlayn mahalla” elektron platformasi bilan integratsiya qilinadi.

Shuningdek, 2022-yildan “Hunarmand” uyushmasi a‘zolari uchun faoliyat yuritish joyidan qat’i nazar, kommunal infratuzilma xizmatlari haqini to‘lash aholi uchun belgilangan tariflar bo‘yicha va shartlar asosida amalga oshiriladi.